

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAYDAROV BAXTIYOR XALIMOVICH**

**DAVLAT ULUSHI MAVJUD AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA  
KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economical sciences**

**Xaydarov Baxtiyor Xalimovich**

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni  
takomillashtirish..... 3

**Хайдаров Бахтиёр Халимович**

Совершенствование корпоративного управления в акционерных  
обществах с государственной долей..... 27

**Khaydarov Bakhtiyor Khalimovich**

Improving corporate governance in joint stock companies with state  
share..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAYDAROV BAXTIYOR XALIMOVICH**

**DAVLAT ULUSHI MAVJUD AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA  
KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2019.2.PhD/Iqt1065 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Urinov Bobur Nasillovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Suyunov Dilmurod Xolmurodovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasulov Nodirbek Madraximovich**  
iqtisod fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent moliya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "26" mart soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel: (99871) 239-28-72; 239-01-49. faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «11» mart kuni tarqatildi.

(2024-yil «7» mart dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
i.f.d., professor

**O.D. Djurabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent

**R.X. Karlibayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida strategik ahamiyatga ega kommunal, transport, energetika va boshqa sohalarda faoliyat yurituvchi, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining aholi kundalik hayoti va iqtisodiyotning rivojlanishidagi oʻrni jadal oʻsib bormoqda. Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, “davlat ulushi mavjud korxonalar COVID-19 pandemiyasidan oldin muhim rol oʻynagan va pandemiyadan keyingi davrda ham shunday boʻladi”<sup>1</sup>. Davlat ulushi mavjud korxonalar soʻnggi 20 yil ichida eng yirik va eng tez rivojlanayotgan transmilliy kompaniyalardan boʻldi. Xalqaro valyuta jamgʻarmasi tadqiqotiga koʻra, “soʻnggi 10 yil ichida dunyoning eng yirik korporatsiyalari orasida davlat ulushi mavjud korxonalarining ahamiyati ikki baravar oshgan: ularning aktivlari 45 trln. AQSh dollari miqdorida jami global yalpi ichki mahsulotning 50 foizini tashkil etdi”<sup>2</sup>. Bu esa jahon miqyosida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalarining dolzarbligi oshib borayotganini koʻrsatadi.

Jahonda korporativ boshqaruv va uni joriy etishdagi muammolar va ularni takomillashtirish borasida koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Korxonalar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish, ularning hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzish va uning toʻgʻriligini taʼminlash, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish, boshqaruv organlari faoliyatini samarali yoʻlga qoʻyish va korporativ boshqaruv samaradorligini baholash bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish, ularning ochiqligi va shaffofligini taʼminlash, boshqaruv va nazorat organlari javobgarligini oshirish, korxonalarni isloh qilish va samaradorligini oshirish boʻyicha bir qator davlat dasturlari qabul qilinib, amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi” ga muvofiq davlat ulushi mavjud xoʻjalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarini boshqarish va isloh qilishning ustuvor yoʻnalishlari belgilangan. Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ–300-son qaroriga muvofiq ustav kapitalida davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalarining tegishli boshqaruv organlarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish koʻzda tutilgan. Biroq davlat ishtirokidagi korxonalarida transformatsiya jarayonlarini oʻtkazmay va ularni isloh qilmay turib, korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish qiyin kechishi mumkin. Shuning uchun davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish

---

<sup>1</sup> Building SOE Crisis Management And Resilience Emerging Practices and Lessons Learned during the COVID-19 Crisis, 2022, World Bank Group, Page 3

<sup>2</sup> <https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2020/05/07/blog-state-owned-enterprises-in-the-time-of-covid-19>

bugungi kundagi muhim vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF–101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiylashtirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 13-apreldagi PF–6207-son “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-oktabrdagi PF–6096-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 8-noyabrdagi PQ–415-son “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2023-yil 1-martdagi PQ–83-son “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Korporativ boshqaruvning fundamental muammolari A.Berle, G.Means, Andrei Shleifer, W.Vishny, R.Coase, E.Williamson, Bob Tricker, W.Bratton, M.Bainbridge singari xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan<sup>3</sup>. Korporativ boshqaruv, uning mexanizmlari va korporativ boshqaruvni baholash tadqiqoti xorijiy olimlardan Dj.Djonson, K.Shoulz, R.Uittington, R.Kloviene, E.Gimzauskiene, D.Misiunas, L.Putterman, D.Xiao-Yuan, A.Szamosszegi, C.Kyle, K.Naqvi, E.Ginting, F.Nita, S.Teguh, A.Adeyemi, B.Ackers, U.Papenfub, rossiyalik olimlar A.Yakimov, A.Sokolov, A.Molotnikov, N.Slanova, D.Sorokin, X.Xarchilava, A.Bottayev, A.Prokopenko va boshqa olimlarning ishlarida rivojlantirilgan<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property. – New York: Macmillan, 1932; Andrei Shleifer & Robert W. Vishny, A Survey of Corporate Governance, 52 J. FIN. 737, 737 (1997); Ronald Coase, The Nature of the Firm, *Economica* 386 (1937); Olliver E. Williamson, The Economics of Discretionary Behavior: Managerial Objectives in a Theory of the Firm (1964); Bob Tricker, Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices William Gower Press, 1984; W. Bratton and Michael L. Wachter, Shareholder Primacy’s Corporatist Origins: Adolf Berle and ‘The Modern Corporation’, 34 J. of Corp. L. 99, 104 (2008); Stephen M. Bainbridge, The new Corporate Governance in Theory and Practice 98-99, 103-104, 192- 194, 200 and 233 (2008)

<sup>4</sup> Джонсон Дж., Шоулз К., Уиттингтон Р. Корпоративная стратегия. Теория и практика. – М.: Вильямс, 2007. – С. 71.; Kloviene Ruta, Edita Gimzauskiene and Dalius Misiunas. 2015. The Significance of SOEs Performance Measurement as Policy Instrument in Baltic Countries. *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 213: 286–92; Putterman, Louis, and Xiao-Yuan Dong. 2000. China’s State-Owned Enterprises: Their Role, Job Creation, and Efficiency in Long-Term Perspective. *Modern China* 26(4): 403–47; Szamosszegi A., Kyle C. An Analysis of State-owned Enterprises and State Capitalism in China. U.S.-China Economic and Security Review Commission. October 26, 2011. Washington, DC: Capital Trade, Incorporated, 2011. 122 p.; Naqvi K, Ginting E. 2020. State Owned Enterprises and Economic Development in Asia. ADB Publication: Reforms, Opportunities, And Challenges For State Owned Enterprises, Chapter 1: 1-44; Nita Ferdiana, Teguh Sugiyarto 2022: State-Owned Enterprises (SOEs): The Role in Economic Development and The Determinant of Its Performance, *Jurnal Ekonomi dan Kebijakan Pembangunan* 11(2): 91-107; Adeyemi Adebayo and Barry Ackers, 2022:

O‘zbekistonlik olimlar ham respublikada korporativ boshqaruv muammolarini tadqiq etish va rivojlantirishga hissa qo‘shganlar. Bular orasida B.Berkinov, I.Butikov, B.Xodiyev, M.Xamidullin, R.Karlibayeva, D.Suyunov, M.Voxidov, D.Begmatova, Z.Ashurov, N.Rasulov va boshqalarni ko‘rsatish mumkin<sup>5</sup>.

Biroq O‘zbekistonda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, shu tariqa, ular faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish, ularga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalariga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Shunga binoan, bu borada ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-4 raqamli “O‘zbekistonda aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligi metodologiyasi va ilmiy asoslari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar va ilg‘or amaliyot asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlarni tadqiq etish;

---

Insights on Corporate Governance Practices of State-Owned Enterprises (SOEs). Journal of Accounting and Investment Vol. 23 No. 1, January 2022; Papenfuß, U. (2020). Corporate governance of state-owned enterprises: Conceptualization, challenges and perspectives for the public corporate governance field. In Bernier, L., Florio, M., & Bance, P. (Eds.), The Routledge Handbook of State-Owned Enterprises (1st ed.); Якимов А.В. Корпорации с государственным участием//Инвестиции и инновации в промышленности. – 2014. – № 7. – С. 12.; Соколов А.В. Регулирование деятельности корпораций с участием государства как форма реализации промышленной политики: автореф. дис. на соиск. уч. ст. д.э.н. – СПб., 2011. – С. 3.; Молотников А.Е., Текутьев Д.И. Правовые проблемы участия государства в акционерных обществах. //Имущественные отношения в Российской Федерации. – Москва, 2012. – № 2. – С. 35.; Сланова Н. Н. Особенности корпоративного управления в акционерных обществах с государственным участием. // Проблемы современной экономики. Сборник материалов XXIV Международной научно-практической конференции. – Новосибирск, 2016. – С. 204.; Сорокин Д.А. Особенности корпоративного управления в компаниях с государственным участием Экономические науки. Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2018. – №3. – С. 97-103.; Харчилава Х.П., Боттаев А.Ю. Корпоративное управление в компаниях с государственным участием. //Управление. – Москва, 2017. – №1. – С. 89-90.; Прокопенко, А. Кремлю не нравится, как правительство управляет госкомпаниями [Электрон-ный ресурс]/А.Прокопенко, Е.Базанова. //Ведомости.- URL: <https://www.vedomosti.ru/economics/articles/> 2016/05/16/641079-pravitelstvo-goskompaniyami (дата обращения 17.01.2018).

<sup>5</sup> Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры: основы создания и управления. – Т.: Изд. Нац. биб-ка Узбекистана им. А.Навои, 2005. - 132 с.; Бутиков И.Л. Қимматли қоғозлар бозори. – Т.: Консаудитинформ. 2001. – 494б.; Ходиев Б.Ю. Карлибаева Р.Х. Акрамова Н.П. Корпоратив бошқарув. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010. – 280б.; Карлибаева Р.Х. Акциядорлик жамиятларида молиявий менежмент тизимини самарали ташкил этиш йўллари, иқтисодийёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2018 й.; Суёнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия. 2007. - 319б.; Ўзбекистонда корпоратив бошқарувни жорий этиш муаммолари. Фаттохова Ж.А., Яушев Р.И., Толипов К.Ф., Хамидуллин М.Б. – Тошкент: Иқтисодий тадқиқотлар маркази. 2006. - 79 б.; Бегматова Д.Б. Совершенствование методов оценки эффективности корпоративного управления в акционерных обществах: дис. на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по экон. наук. – Т.: ГЭУ, 2017. - 164с.; Ашуров З. Акциядорлик корхоналарида корпоратив бошқарувнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. – Т., 2019. – 151 б. Расулов Н.М. Корпоратив тузилмаларда инновацион жараёнларни стратегик бошқариш услубиётини такомиллаштириш, иқтисодийёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Т., 2021 й.

aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash asoslari va metodologiyasini o'rganish hamda uni rivojlantirish;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishga oid xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy amaliyotni tadqiq etish;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tashkil etishning normativ-huquqiy va me'yoriy asoslarini o'rganish, mavjud huquqiy bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv holati va uning samaradorligini tahlil qilish;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy natijalarining korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sirini aniqlash;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida zamonaviy menejment yondashuvlari, kuzatish, qiyoslash, tizimli va kompleks yondashuv, eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tasniflash, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy va dinamik tahlil, reytinglash, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming barobaridan kam bo'lgan davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari uchun ichki audit xizmatini tashkil etish talabini bekor qilish orqali ularning xarajatlarini qisqartirish va operatsion samaradorligini ta'minlash asoslangan;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida biznes faoliyatni kutilmagan hodisa ta'siridagi iqtisodiy zarardan saqlashni ta'minlashda «Korxonalar faoliyatining davomiyligi rejasi»ni joriy etish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda davlat mulkini saqlash mezonlarini belgilash orqali davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini xususiyashtirish dasturlarini shakllantirishda subektiv yondashuvning oldini olish asosida ularning sonini 2026-yilga qadar 80 foizga qisqartirish prognozi ishlab chiqilgan;

«O'zbekiston metallurgiya kombinati» AJning uzoq muddatli davrdagi korporativ boshqaruv ko'rsatkichi hamda axborot siyosatining sof foydaga ta'siri va o'zaro bog'liqligining korrelyasion-regression tahlili asosida 2027-yilga qadar prognoz parametrlari baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv bo'yicha rahbarlik tamoyillarida" belgilangan davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalardan kelib chiqib, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik



jamiyatlarining ochiqlik va shaffoflik holatini yig'ma jadval va 67 ta savoldan iborat savolnoma asosida baholash tizimi ishlab chiqilgan;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari uchun ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan 45 ta muhim fakt, 3 ta choraklik va yillik hisobotlar, 2 ta aksiyalar chiqarish va umumiy yig'ilish o'tkazish bilan bog'liq axborotlar, 30 ga yaqin jamiyat veb-saytida joylashtiriluvchi ma'lumotlar, Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga topshiriluvchi 10 dan ziyod axborotlarni oshkor etish taqvimini ishlab chiqilgan;

davlat ulushi mavjud va davlat ulushi mavjud bo'lmagan aksiyadorlik jamiyatlari uchun normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablarning solishtirma tahlili o'tkazilib, o'rtacha bir yilda jamiyatlarning xarajatlari hisob-kitob qilinib, ushbu xarajatlarni qisqartirish taklifi berilgan;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish samaradorligi, Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini amalga oshirish holati, korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari, boshqaruv va nazorat organlari, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish holati va xususiylashtirish natijalarini o'z ichiga oluvchi davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish samaradorligi to'g'risida yig'ma hisobot shakli ishlab chiqilgan;

ilg'or xorijiy tajribada qo'llaniluvchi xo'jalik jamiyati ishtirokchilariga o'z korporativ huquqlarini muayyan tarzda bajarish yoki ularni bajarishda tiyilishni o'z ichiga oluvchi korporativ shartnoma tuzishning huquqiy asoslarini yaratish taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining statistik va hisobot ma'lumotlaridan olingani, ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda to'liq aprobatsiyadan o'tganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, ularning davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv konsepsiyasi va mohiyati hamda ularning iqtisodiyotdagi roli xususida ilmiy-nazariy yondashuvlarni rivojlantirishga, ilg'or xorijiy tajribada qo'llaniluvchi korporativ boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarning nazariy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi taklif va tavsiyalardan davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlar asosida rivojlantirishda, korporativ boshqaruv masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish samaradorligini oshirishda hamda "Menejment" va "Korporativ boshqaruv" yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlashda darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming barobaridan kam bo'lgan davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari uchun ichki audit xizmatini tashkil etish talabini bekor qilish orqali ularning xarajatlarini qisqartirish va operatsion samaradorligini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 26-maydagi 03/09-17/2247-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 80 ta aksiyadorlik jamiyatlarining bir yilda 3,2 mlrd. so'm xarajati iqtisod qilinishiga erishilgan;

davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida biznes faoliyatni kutilmagan hodisa ta'siridagi iqtisodiy zarardan saqlashni ta'minlashda «Korxonalar faoliyatining davomiylik rejasi»ni joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 26-maydagi 03/09-17/2247-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 18 ta davlat ishtirokidagi korxonalarda mazkur mexanizmni joriy etish bo'yicha boshqaruv organlari qarorlari qabul qilinib, biznes faoliyat kutilmagan hodisalar hisobiga zarar ko'rishning oldi olingan;

O'zbekistonda davlat mulkini saqlash mezonlarini belgilash orqali davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini xususiylashtirish dasturlarini shakllantirishda subektiv yondashuvning oldini olish asosida ularning sonini 2026-yilga qadar 80 foizga qisqartirish prognozi O'zbekiston Respublikasining «Davlat mulkini boshqarish to'g'risida»gi Qonunida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 26-maydagi 03/09-17/2247-son ma'lumotnomasi). Mazkur qonunning qabul qilinishi davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari sonini 2026-yilga qadar 80 foizga qisqartirishga hamda davlat ixtiyorida faqat milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan strategik aksiyadorlik jamiyatlarini saqlab qolishga xizmat qilgan;

«O'zbekiston metallurgiya kombinati» AJning uzoq muddatli davrdagi korporativ boshqaruv ko'rsatkichi hamda axborot siyosatining sof foydaga ta'siri va o'zaro bog'liqligining korrelyasion-regression tahlili asosida 2027-yilga qadar prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023-yil 26-maydagi 03/09-17/2247-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida «O'zbekiston metallurgiya kombinati» AJning uzoq muddatli davrdagi korporativ boshqaruv ko'rsatkichlari va asosiy parametrlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Jahon bankining 2020-yildagi Anqarada (Turkiya) o'tkazilgan "Building Effective, Accountable, and Inclusive Institutions in Europe And Central Asia" mavzusidagi konferensiyasida ma'ruza qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan 8 ta ilmiy maqola (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida 4 ta, xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan nashriyotlar va ma'lumotlar bazasi asosida impakt-faktorga ega xorijiy ilmiy jurnalda 1 ta va boshqa ilmiy to'plamlarda 3 ta) hamda 7 ta ma'ruza tezisi nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 14 ta ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti va uslublari tavsiflangan. Shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning nazariy asoslari va xorij tajribasi**" deb nomlangan birinchi bobida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv va uning samaradorligini baholash xususidagi ilmiy-nazariy va metodologik asoslar tadqiq etilgan, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishga oid xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajriba o'rganilgan.

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv masalalarini ko'rib chiqish, dastavval ularning iqtisodiyotdagi o'rni hamda korporativ boshqaruv xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlarni o'rganishni talab etadi.

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish xalq manfaatlarini ifoda etgan holda amalga oshirilishi, ularning faoliyati fuqarolarning kundalik hayoti va iqtisodiyotning qolgan qismi raqobatbardoshligiga ta'sir qilishini e'tiborga olgan holda oxirgi yillarda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini samarali boshqarishga milliy va xalqaro miqyosda alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiyotdagi o'rni va ularda korporativ boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar va izlanuvchilar tadqiqotlari tahlili ko'rsatdiki, aholi uchun

zarur, xususiyl sektor uchun no-rentabel bo'lgan, tayanch xizmatlarni ko'rsatishda davlat ishtirokidagi korxonalarining o'rni muhim hisoblanadi (1-jadval).

## 1-jadval

### Xorijiy iqtisodchi olimlar va izlanuvchilar tomonidan davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiyotdagi o'rni va ularda korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar<sup>6</sup>

J. Jonson, K. Shoulz va R. Uittington	Davlat ishtirokidagi korporatsiyalarning asosiy funksiyasi milliy ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning strategik ustuvorliklarini korporativ mexanizmlar orqali amalga oshirish hisoblanadi.
R. Kloviyen, E. Gimzauskiyen va D. Misiunas	Bolliqbo'yi mamlakatlaridagi davlat ishtirokidagi korxonalar energiya, suv, jamoat transporti, aloqa, sog'liqni saqlash, ta'lim singari davlat xizmatlarining asosiy subyektlari hisoblanadi.
L. Putterman va X. Dong	Xitoydagi davlat korxonalarida iqtisodiy o'tish davrida yuqori bandlik ta'minlangan, ijtimoiy barqarorlik va umumiy farovonlik oshirilgan.
K. Naqvi va E. Ginting	Davlat korxonalarida energiya, transport, suv va tabiiy resurslarni o'rganishdek ko'plab sohalarda muhim infratuzilma va davlat xizmatlarini taqdim etishda munosib hissa qo'shadi.
F. Nita, S. Teguh	Indoneziyadagi davlat korxonalarining davlat daromadidagi hissasi 24 foizni tashkil etadi.
A. Adeemi va B. Akkers	Davlat ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiyotga potensial muhim hissasiga qaramay, ular ko'pincha korporativ boshqaruv bilan bog'liq jiddiy muammolarga duch keladi.
U. Papenfub	Davlat korxonalarida korporativ boshqaruv muammolari ko'lami xususiyl korporativ tuzilmalarga nisbatan yuqori.
A. Yakimov	Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida davlat nazorati va iqtisodiyotning turli tarmoqlarini strategik rivojlantirish ustuvorliklarini ta'minlash funksiyalari korporativ mexanizmlar orqali amalga oshiriladi, davlat budjeti daromadlarining ma'lum qismi dividend hisobidan shakllanishiga ko'maklashiladi.
A. Sokolov	Sanoat ishlab chiqarishini va o'sishning zarur sifatini ta'minlashda davlatning strategik funksiyalarini amalga oshiruvchi korporatsiyalar o'ziga xos o'rin tutadi.
A. Molotnikova va D. Tekutyeva	Davlatning korporatsiyalardagi ishtiroki ijtimoiy vazifalarni hal qilish, barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarida davlat manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi.
X. Xarchilava va A. Bottayev	Budjet defitsiti va davlat qarzining ko'payishi natijasida davlat aksiyadorlik jamiyatlaridagi ulushini sotishga majbur bo'ladi, buning natijasida samarali faoliyat yurituvchi aralash mulk shaklidagi kompaniyalar yuzaga keladi.


Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalari so'nggi yillarda mahalliy iqtisodchi olimlar, jumladan S.N. Yuldashev<sup>7</sup> "O'zbekengilsanoat" DAKdagi davlat aksiyalar paketini boshqarish

<sup>6</sup> Muallif tomonidan shakllantirildi

<sup>7</sup> Yuldashev S.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat mulkini boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari), iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – Toshkent, 2010.

samaradorligini oshirish, Sh.Kurbaniyazov<sup>8</sup> davlat ulushi 100 foizni tashkil qilgan “O‘zqurilishmateriallari” AJda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, R.X.Karlibayeva<sup>9</sup> davlat va xo‘jalik boshqaruv organi ulushi birgalikda 100 foizni tashkil qilgan “Navoiyazot” AJ moliyaviy natijalar samaradorligini oshirish va balans passivlarini samarali boshqarish, N.Sh.Abdiyeva<sup>10</sup> davlat ulushi 100 foiz bo‘lgan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda ichki auditni takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotlari o‘rganib chiqilgan va tahlil qilingan.

Bir guruh iqtisodchi olimlarning<sup>11</sup> fikricha, davlatning aksiyadorlik jamiyatlarida ishtirok etishi ular natijalarining yomonlashuviga olib keladi. Tadqiqotda ham davlat ishtirokidagi bir qator korxonalarining 2021-yil yakuni bo‘yicha 6,0 trln. so‘m zarar ko‘rgani (1-rasm) va uning asosiy sabablari sifatida korxonalariga nisbatan notijorat maqsadlar belgilanmaganligi va korporativ boshqaruv darajasi pastligi ko‘rsatilgan.



**1-rasm. 2021-yil yakuni bo‘yicha zarar ko‘rgan davlat ishtirokidagi 20 ta korxonalar, mlrd. so‘m<sup>12</sup>**

Tadqiqotda O‘zbekiston va xorijda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining YAIMdagi ulushi tahlili o‘tkazilib (2-jadval), O‘zbekiston Xitoy va Turkmanistondan keyin YAIMdagi ulushi yuqoriligini e‘tiborga olgan holda, ularda korporativ boshqaruvni joriy etish va uning holatini baholab borish yo‘li bilan davlatning funksiyalarini faqat korporativ mexanizmlar orqali amalga oshirishni to‘laqonli yo‘lga qo‘yish muhim, degan xulosaga kelindi.

<sup>8</sup> Kurbaniyazov Sh.K. Qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etish samaradorligi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018.

<sup>9</sup> Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo‘llari, iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent, 2018.

<sup>10</sup> Abdiyeva N.Sh. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ korporativ boshqaruv tizimida ichki auditni takomillashtirish, falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018.

<sup>11</sup> Бархагов В.И., Журавлева Г.П., Мильчакова Н.Н., Шатин А.Ю. Экономическая теория. – М.: Финансы и статистика, 2007. — 1240 с.

<sup>12</sup> <https://www.davaktiv.uz/uz/news/the-state-assets-management-agency-has-published-an-analysis-of-the-financial-statements-of-enterprises-with-state-participation>

Tadqiqot doirasida mualliflik ta’rifi shakllantirilgan bo‘lib, unga ko‘ra **davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv** – aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv organlari va boshqa manfaatdor tomonlar manfaati uyg‘unligiga erishish uchun davlat nomidan aksiyador vazifalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan davlat va xususiy aksiyadorlarning teng huquqlarini ta’minlagan holda davlatning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan tijorat va notijorat maqsadlarini korporativ boshqaruv mexanizmlari orqali amalga oshirishga qaratilgan harakatlar majmuidir.

**2-jadval**

**Ayrim mamlakatlarda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining YAIMdagi ulushi, foizda<sup>13</sup>**

№	Mamlakat	Ko'rsatkich, %	№	Mamlakat	Ko'rsatkich, %
1.	Xitoy	75	15.	Latviya	30
2.	Turkmaniston	75	16.	Sloveniya	30
3.	O'zbekiston	55	17.	Turkiya	30
4.	Belarus	48,5	18.	Albaniya	25
5.	Tojikiston	45	19.	Armaniston	25
6.	Bosniya va Gersogovina	40	20.	Ozarbayjon	25
7.	Serbiya	40	21.	Bolgariya	25
8.	Ukraina	40	22.	Gruziya	25
9.	Qozog'iston	35	23.	Qirg'iziston	25
10.	Moldova	35	24.	Litva	25
11.	Chernogoriya	35	25.	Mongoliya	25
12.	Rossiya	35	26.	Polsha	25
13.	Xorvatiya	30	27.	Estoniya	20
14.	Makedoniya	30	28.	Vengriya	20

Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning korporativ boshqaruvni baholash bo‘yicha metodologiyalarini (3-jadval) o‘rganish natijasida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash yo‘nalishlari hamda aksiyadorlik jamiyatining axborotlarni oshkor etish holatini baholash bo‘yicha savolnoma ishlab chiqildi.

Tadqiqotda ta’kidlanishicha, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasi, jumladan yangi mexanizmlar va amaliy jihatlar juda muhim hisoblanadi. Bu boradagi asosiy hujjat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Davlat ishtirokidagi korxonalar

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

uchun korporativ boshqaruv bo'yicha rahbarlik tamoyillari"<sup>14</sup> (Rahbarlik tamoyillari) hisoblanadi.

### 3-jadval

#### Iqtisodchi olimlar va izlanuvchilar tomonidan korporativ boshqaruv samaradorligini baholash uchun foydalanilgan metodologiyalar<sup>15</sup>

S.Strenjer	Germaniya korxonalarini 7 ta (korporativ va'da, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va qo'mitalar, hisobot, nazorat, boshqaruv organlari o'rtasidagi hamkorlik, oshkoralik) yo'nalishni o'z ichiga olgan Korporativ boshqaruv bo'yicha ko'rsatkichlar xaritasi asosida baholangan.
V.Drobes va boshqalar	Davlat ulushi mavjud 91 ta kompaniyadagi korporativ boshqaruv reytingini tuzib, korporativ boshqaruvni yaxshilash operatsion samaradorlik, qimmatli qog'ozlar daromadi va bozor bahosi bilan yuqori darajada bog'liqligini isbotlagan.
T.Lazarides va Ye.Drimpetas	Korporativ boshqaruv mexanizmi va amaliyotini aniqlash uchun yillik hisobot ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan indeks korporativ boshqaruv holatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash va manfaatdor shaxslarga mazkur baholash natijasida yaxshilanishi lozim bo'lgan yo'nalishlar to'g'risida axborot olish imkonini bergan.
L.Klapper va I.Lov	Boshqaruv intizomi, shaffoflik, mustaqillik, hisobdorlik, mas'uliyat va adolat kabi "ha" yoki "yo'q" javoblari bo'lgan 6 ta yo'nalish bo'yicha 57 ta savol asosida Gonkong, Koreya, Malayziya, Filippin, Singapur singari 14 ta mamlakatning 374 ta korxonasi korporativ boshqaruv reytingi shakllantirilgan.
E.Barussi va J.Falini	Kengash tarkibi va uni tayinlash, qo'mitalar, axborotlarni oshkor etish, boshqaruv organlarining mustaqilligi va boshqa masalalarga e'tibor qaratgan holda Italiyadagi 300 ga yaqin korxonalarining ikki yillik korporativ boshqaruv holati baholangan.
R.Bisvas	5 ta yo'nalishda 148 ta elementdan iborat savolnoma asosida 1996-2009-yilga qadar Bangladeshdagi Dakka fond birjasining 2305 ta listing kompaniyalaridagi korporativ boshqaruv samaradorligi baholangan.
D.Suyunov	100 balli shkala bo'yicha 3 ta asosiy ko'rsatkich asosida korporativ boshqaruvni baholash taklif etilgan.
M.Xamidullin	10 balli shkala bo'yicha 10 ta asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.
Z.Ashurov	100 balli shkala bo'yicha 12 ta asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan.
D.Begmatova	7 ta yo'nalish bo'yicha 47 ta ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan.
Muallif	100 balli shkala bo'yicha 9 ta saytga joylashtiriladigan axborotni o'z ichiga oladi.

Mazkur Rahbarlik tamoyillari kompleks o'rganilib, undagi davlat mulki siyosatini ishlab chiqish, malakali boshqaruv a'zolari, jumladan mustaqil a'zolari jalb etish, ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash singari tavsiyalarning xorijiy davlatlardagi amaldagi holati tahlil qilingan va O'zbekistonda joriy etish takliflari ishlab chiqilgan. Jumladan, davlat mulkiga egalik qilish mezonlari va davlat mulkini boshqarish subyektlari hamda ularning vazifalarini nazarda tutuvchi davlat mulki siyosati singari hujjatlar Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Estoniya, Finlyandiya,

<sup>14</sup> OECD (2016), OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises, 2015 Edition: (Russian version) OECD Publishing, Paris.

<sup>15</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan.



Norvegiya, Shvetsiya va Yangi Zelandiya singari davlatlarda mavjud bo'lib, Armaniston, Gruziya, Qirg'iziston, Tojikistonda bunday hujjatlar qabul qilinmagan.

Davlat mulki siyosatiga asosan davlat ixtiyorida qolgan tashkilotlarni solishtirma tahlil qilish elektroenergetika, infratuzilma va bank sohasida davlat ishtiroki mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, O'zbekistonda "Milliy elektr tarmoqlari", "Hududiy elektr tarmoqlar", "Issiqlik elektr stansiyalari", "O'zbekgidroenergo" korxonalarida 100 foiz davlat ulushi mavjud bo'lsa, Rossiyada "RusGidro" (60,49 %), "FSK Yedinoy energeticheskoy sistemi" (81 %), "Rosseti" (88 %), "Energeticheskiye sistemi Vostoka" (84 %), Polshada "ENERGA" (51,52 %), "ENEA" (51,50 %), Turkiyada "Elektrik Üretim A.Ş" (100 %), "TEİAŞ" (100 %), "TETAS" (100 %) davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqotda benchmarking tahlil usuli natijasida, davlat ulushi mavjud ayrim aksiyadorlik jamiyatlari ko'rsatkichlari xorijdagi o'xshash kompaniyalardan nisbatan pastligi aniqlandi. Masalan, "O'zbekiston temir yo'llari" AJda bir nafar xodimga to'g'ri keluvchi sof tushum 5,1 ming dollarni tashkil etsa, Rossiyadagi "RJD" AJda 26,3 ming dollar, Xitoydagi "China railway group" AJda 207,4 ming dollarni tashkil etadi.

Muallifning fikricha, davlatning mulkka nisbatan egalik qilish asoslarini belgilash va uni jamoatchilikka oshkor qilish borish yaxshi amaliyot hisoblanadi, davlat birinchi navbatda, o'z egaligida qoladigan korxonalarni aniqlaydi va ularda korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda moliyaviy natijalarni yaxshilash bo'yicha choralar ko'radi.

Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvni joriy etish va takomillashtirish holati kuzatuv kengashi a'zolarining malakasiga bog'liq bo'lib, kuzatuv kengashi a'zolarini oldindan belgilangan malaka talablari asosida tanlab olish amaliyoti Avstriya, Finlyandiya, Gretsiya, Polsha va Buyuk Britaniyada joriy etilgan. O'zbekistonda mazkur jarayon barcha uchun ochiq tanlov orqali emas, balki vazirlik va idoralarning xodimlari orasidan Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan<sup>16</sup> holda tavsiya etiladi.

Jahon banki tomonidan tayyorlangan hisobotga ko'ra<sup>17</sup>, O'zbekistonda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari uchun axborotlarni oshkor etish bo'yicha xalqaro standartlarga nisbatan mos talablar belgilangan.

Dissertatsiyaning **"O'zbekiston Respublikasida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv holatining tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni tartibga soluvchi normativ-huquqiy va me'yoriy hujjatlar tahlili, respublikada faoliyat yuritayotgan barcha davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari va korporativ boshqaruv holati, korporativ boshqaruv holatiga moliyaviy natijalarning ta'siri tahlil qilingan.

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari va korporativ boshqaruv masalalarini tartibga soluvchi 41 ta normativ-huquqiy hamda 2 ta me'yoriy

<sup>16</sup> Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-apreldagi 356-son qarori/www.lex.uz/

<sup>17</sup> <https://documents1.worldbank.org/curated/en/364041608727945327/text/Corporate-Governance-of-State-Owned-Enterprises-in-Europe-and-Central-Asia-A-Survey.txt>



(Korporativ boshqaruv kodeksi<sup>18</sup> va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari<sup>19</sup>) hujjatlar tahlili davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlariga 34 ta talab belgilanganligini, mazkur talablar xususiy aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan 16 taga ko'pligini hamda yiliga o'rtacha sarf-xarajatlar 716,2 mln. so'm ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot doirasida davlat va xususiy aksiyadorlik jamiyatlari uchun belgilangan talablarning qiyosiy tahlili amalga oshirilib, alohida talablarni bekor qilish taklifi shakllantirildi. Shuningdek, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlariga qulaylik yaratish maqsadida axborotlarni oshkor etish bo'yicha alohida taqvim ishlab chiqildi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan axborotlarni oshkor qilish bo'yicha taqvim<sup>20</sup>

№	Axborot nomi	Axborotni joylashtirish manbasi	2 ish kunida	Chorakdan keyin 1 oy ichida	Alohida muddat
1.	45 ta muhim fakt	<a href="http://www.openinfo.uz">www.openinfo.uz</a> <a href="http://www.uzse.uz">www.uzse.uz</a> *			
2.	Buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar	<a href="http://www.openinfo.uz">www.openinfo.uz</a> <a href="http://www.uzse.uz">www.uzse.uz</a> <a href="http://www.kpi.davaktiv.uz">www.kpi.davaktiv.uz</a> <a href="http://www.soliq.uz">www.soliq.uz</a>			
3.	Yillik hisobot	<a href="http://www.soliq.uz">www.soliq.uz</a>			25/02
		<a href="http://www.openinfo.uz">www.openinfo.uz</a> <a href="http://www.uzse.uz">www.uzse.uz</a> <a href="http://www.kpi.davaktiv.uz">www.kpi.davaktiv.uz</a>			AUY keyin 2 haftada
4.	AUY o'tkazilishi to'g'risidagi xabar	OAV			21 kun oldin
5.	Aksiyalar ommaviy joylashtirilganda	OAV			ikki hafta oldin
6.	16 ta yangilanadigan axborot	Jamiyat sayti			
7.	6 ta ma'lumot	Jamiyat sayti			
8.	5 ta ma'lumot	Jamiyat sayti			olti oy ichida
9.	Biznes-reja va boshqa ko'rsatkichlar	<a href="http://www.kpi.davaktiv.uz">www.kpi.davaktiv.uz</a>			25-fevralgacha


\* - listingga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlari uchun

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari soni 2002-yilning boshida 2 660 ta yoki aksiyadorlik jamiyatlari umumiy sonidan 56,4 foizni (nominal qiymatidan 46,1 foiz) tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, ular soni jihatdan 12 barobardan ziyodroq kamayib, 223 tani tashkil etgan bo'lsa-da, aksiyalarning umumiy nominal qiymatiga nisbatan 34,6 foizga ko'payib, 80,1 foizga yetganini kuzatish mumkin (2-rasm).

<sup>18</sup> Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 11.02.2016y. № 02-02/1-187-son bayoni bilan tasdiqlangan.

<sup>19</sup> Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 27.04.2018y. № 24/1-989-son bayoni bilan tasdiqlangan.

<sup>20</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



## 2-rasm. 2002-2022-yillarda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari va ularning aksiyalari<sup>21</sup>

Shuningdek, 2017-2021-yillarda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining sof tushumi 4,3 barobarga, sof foydasi 9 barobarga, zarar miqdori 3 barobarga, sof tushumning YAIMga nisbati qariyb 2 barobarga oshgani (5-jadval) ularning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirib borayotganidan dalolat beradi.

### 5-jadval


#### Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari<sup>22</sup>, trln. so'm

№	Asosiy ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
1.	Sof tushum	55,7	64,9	147,6	217,9	239,7
	YAIMga nisbatan	18,4	15,9	27,6	36,2	32,6
2.	Sof foyda	3,0	6,0	10,2	24,5	27,7
3.	Zarar	2,6	1,5	2,8	5,7	8,0
4.	Davlat ulushi bo'yicha dividend	0,1	0,2	0,5	1,7	3,3
5.	Sof aktivi	82,5	99,5	136,2	212,1	179,6

Xalqaro tajribaga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarining listingga kiritilishi mazkur jamiyatlarda korporativ boshqaruv nisbatan yuqori darajada yo'lga qo'yilgani va yuqori talablarga javob berishidan dalolat beradi. 2019-yil yakuni bo'yicha listingga jami 112 ta qimmatli qog'ozlar kiritilgan bo'lsa, shundan 73 tasining yoki 65 foizining emitenti davlat ulushi mavjud korxonalar hisoblanadi. 2019-yil yakuniga nisbatan 2022-yil yakuni bo'yicha listingga kiritilgan qimmatli qog'ozlar soni 5 foizga davlat ulushi mavjud korxonalar qimmatli qog'ozlari soni 18 foizga kamaygan. "Toshkent" RFBda amalga oshirilgan bitimlar hajmi tahlili davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari hissasi 2020-yilda 25,4 foiz, 2021-yilda 24,0 foiz va 2022-yilda 8,0 foizni tashkil etganini ko'rsatdi (3-rasm). Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlariga tegishli qimmatli qog'ozlar soni va ular ishtirokidagi bitimlarning kamayishini amalga oshirilayotgan xususiy lashtirish jarayonlari va xususiy sektorning fond bozoriga qiziqishi ortishi bilan izohlash mumkin.

<sup>21</sup> Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>22</sup> Statistika agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



### 3-rasm. "Toshkent" RFBda amalga oshirilgan bitimlar va ulardagi davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining ulushi<sup>23</sup>

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan listing talablariga rioya qilinishi tahlil qilinganda, ayrim hollarda ular tomonidan korporativ boshqaruv bo'yicha belgilangan talablarga rioya qilinmaganligini kuzatish mumkin. Jumladan, davlat ulushi mavjud 60 ta aksiyadorlik jamiyatidan faqat 30 tasida mustaqil a'zolar mavjud. Qolgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kamida bir nafar mustaqil a'zoni kiritishdek listing talabi bajarilmagan.

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining axborotlarni oshkor etish holati nafaqat investorlar, balki jamoatchilik uchun ham muhim hisoblanganligi sababli, yirik 33 ta davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyati saytlarini qonunchilik<sup>24</sup> talablari asosida ma'lumotlarni joylashtirish holati tadqiqotchi savolnomasiga asosan 9 ta axborotlarning veb-saytda joylashtirilishiga e'tibor qaratib, har biriga tegishli ballar qo'ygan holda tahlil qilindi. Bunda, veb-saytda to'ldirilgan ma'lumotlar umumiy 100 ball shkalasi bo'yicha baholanib, 90 ball va undan yuqori – a'lo, 75-89 ball – yaxshi, 60-74 ball – qoniqarli, 59 va undan past – qoniqarsiz deb baholandi. Natijada, 33 ta aksiyadorlik jamiyatidan 6 tasi a'lo, 9 tasi yaxshi, 10 tasi qoniqarli, 8 tasi qoniqarsiz deb baholandi.

223 ta davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv holatini baholash natijalari (2017-yilda 97 ta (4 tasi past, 80 tasi qoniqarli, 13 tasi yuqori), 2021-yilda 153 ta (16 tasi past, 89 tasi qoniqarli, 48 tasi yuqori), 2022-yilda 62 tasi (3 tasi past, 41 tasi qoniqarli, 18 tasi yuqori) bu borada yetarli nazorat o'rnatilmaganligini ko'rsatmoqda.

Umuman, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv bo'yicha amalga oshirilgan ishlar Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan monitoringi amalga oshirilgan bo'lib, 120 tasida davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari joriy qilingan, 139 tasi korporativ boshqaruv samaradorligi baholangan, 12 tasida 34 nafar xorijiy menejer, 65 tasiga

<sup>23</sup> "Toshkent" RFB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>24</sup> Vazirlar Mahkamasining 19.02.2021-yildagi 81-son "Davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalarining rasmiy veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori

